

AHMAD YUGNAKIYNING “HIBBAT UL-HAQOYIQ” DOSTONIDA BILIM USTUVORLIGI TALQINI

Juraqulov Mirjalol Sunnatillo o‘g‘li

BuxDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq” dostonida keltirilgan ilm bobidagi to‘rtliklar tahlil qilingan bo‘lib, ilmlilikning foydasi va ilmsizlikning ziyoni haqida hamda ilmi va ilmsiz kishilarning jamiyatdagi o‘rni haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qur‘on, hadis, ilmi, ilmsiz, mis, dinor, so‘ngak, obrazli, johil.

ABSTRACT

This article analyses Ahmad Yugnakiy’s quatrains from the book “Hibbat –ul Haqoyiq” which states the benefit of literacy and detriment of illiteracy as well as the social position of ignorant and knowledgeable people.

Key words: Qur‘an, wise words, knowledgeable, uneducated, copper, dinar, bone, figurative, ignorant.

KIRISH

Ahmad Yugnakiy XI-XII asrlar o‘zbek adabiyotining yirik namoyindasi, iste’dodli shoir bo‘lib, uning “Hibbat ul-haqoyiq” dostoni bizgacha yetib kelgan yagona asari hisoblanadi.

“Doston 256 baytdan tarkib topgan. Asarning 14 bobdan iborat ekanligi qayd etilgan bo‘lsa-da, uning bizgacha 11 bobi yetib kelgan. [1,87].

Adib o‘zining dostonida bilim o‘rganishning foydasi va bilimsizlikning ziyoni, so‘zlaguvchi kishi o‘z tiliga e‘tiborli bo‘lishi kerakligi, dunyoning o‘tkinchiligi, saxiylikning foydasi hamda xasislikning ziyoni kabi bir qator mavzularni shoirona mahorat bilan yoritadi.

ASOSIY QISM

Dostonning asosiy qismi beshinchi fasldan boshlanadi. “Avvalgi nav. Bilimning foydasi va bilimsizlikning ziyoni to‘g‘risida”[2,10] deya nomlangan bo‘lib, mazkur bob 41-64-baytlardan iboratdir.

Bu bob o‘z bag‘rida 12ta to‘rtlikni saqlagan bo‘lib, adib bu to‘rtliklarning ayrimlarida Qur‘oni karim oyatlariga, Payg‘ambarimiz alayhissalomning so‘zlariga ochiq ishoratlar ko‘rsatgan. Xususan, Payg‘ambarimiz alayhissalomdan kelgan “*Ilm Chin(Xitoy)da bo‘lsa ham o‘rganinglar*” [3,16], deyilgan hadisini adib bilim bobida mahorat bilan qo‘llagan:

(51). Bilig birlä ‘ālim yuqar yuqladi
Biligsizlik erni çökärdi qudi.

- (52). Bilig yind usanma, bil ol haq rasul:
“Bilig Čindä ersä, siz arqañ”, tedi[2,77-78]

Mazmuni:

- (51) Bilimi bilan olim yuqori ko‘tarildi
Bilimsizlik esa kishini quyi cho‘ktirdi.
(52) Bilim izla, g‘ofil bo‘lma, bilki, rasul haqdir:
Bilm Chinda bo‘lsa ham siz uni izlang[2,11].

Demak, ilm shunday bir kuch-ki u bilan olim yuqori ko‘tariladi va bilimsiz kishi quyi cho‘kadi. Shu o‘rinda adib ilm talabidagi tolibning ilm uchun yo‘l olgan manzilida masofa, millat, e‘tiqod tolibga ikkinchi darajali ekanligini hadis orqali ta‘kidlamogda. Bundan tashqari adib bilimning foydasiga to‘xtalar ekan, bilimli kishining so‘zi pand-u nasihat ekanligini, bilimlini arab ham, ajam(arab bo‘lmagan mamlakatlar) ham maqtashini, faqirga ilm - mol-u dunyo, nasabsiz kishiga esa - tunganmas nasab bo‘lishini aytib o‘tgan:

- (63). Biliglig sözi pand-nasihad adab,
Biligligni ögdi ‘ajam ham ‘arab.
(64) Tawarsizyâ bilgi tügenmäs tawar,
Nasabsuzyâ bilgi tügenmäs nasab[2,79].

Mazmuni:

- (63) Bilmlining so‘zi pandu nasihat, adabdir,
Bilmlini ajam ham arab ham maqtadi
(64) Moli bo‘lmagan (kishi)uchun uning bilimi tunganmas xazinadir,
Nasabsizga esa uning bilmi tunganmas nasabdir[2,12].

Adib, bob davomida ilimli kishi doim ilm talabida bo‘lishini va ilmning qadriga faqat ilimli kishigina yetishini hamda dunyoda bilimdek foydali hech narsa yo‘qligini va bir bilimli kishi mingta bilmsiz kishiga tengligini aytib o‘tadi.

Quyida esa bilimsizlikning ziyoni haqida adibning qarashlariga e‘tiborimizni qaratamiz:

- (55). Biligsizgä haq söz tatï’siz erür,
Añar va’z-u pand-ol asïy’siz erür.
(56). Ne türlüg arïy’siz arir yumaqin
Jähil yup arïmas, arïy’siz erür[2,78]

Mazmuni:

- (55) Bilimsizga to‘g‘ri so‘z totsiz eshitiladi,
Unga o‘git va nasihat foydasiz erur.
(56) Necha turlik kirlar yuvsa ketadi,
Johil (esa) yuvib toza bo‘lmaydigan kirdir[2,11].

Adib bilimsiz kishiga to‘g‘ri so‘z yoqmasligini, unga hatto o‘git va nasihatlar ham foyda bermasligini aytib o‘tar ekan, shu o‘rinda yana bir ajoyib o‘xshatishga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Adib johil(ilmsiz)likni shundayin bir kirlik, chirkinlikka o‘xshatayapdiki boshqa kirlarni yuvsa ketar ammo johillik yuvib toza qilib bo‘lmas kirdir deydi. Shu o‘rinda Qur‘oni Karimga ham nazar solsak: “... **(Musso) dedi: “Johillardan bo‘lib qolishimdan meni Alloh asrasin!”** (“Baqara” surasi , 67-oyat)[4,10].” Bu johillik balosidan hatto payg‘ambarlar ham panoah so‘ragan ekan, adibning o‘qiguvchini bu boradagi ogohlantishi bejizga emasdir.

Bob davomida adib bilimli va bilimsiz kishilarni taqqoslar ekan, bilimli kishi vafot etsa ham uning nomi abadiy qolishini, ilmsiz kishi esa tirikligida ham nomi o‘lgan(o‘chgan) ekanligini aytib o‘tadi.

Quyidagi o‘rinda keltirilgan to‘rtliklarda adib bilimli va bilimsiz kishini obrazli qilib taqqoslagan:

- (43). Bahaliy‘dinal-ol biliglig kiši
Bu jāhil biligsiz bahasiz biši
- (44). Biliglig biligsiz qačan teñ bolur?
Biliglig tiši – er, jāhil er – tiši[2,77].

Mazmuni:

- (43) Bilimli kishi qiymatli dinordir,
Johil (va) bilimsiz (kishi) arziyas chaqadir
- (44) Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo‘lgandi?
Bilimli ayol-erkak, johil erkak esa xotindir[2,10].

Adib yuqoridagi to‘rtlikning ilk baytida bilimli kishini dinor – oltin tangaga, bilimsiz kishini esa chaqa – mis tangaga o‘xshatmoqda.

Shu o‘rinda to‘rtlikning uchinchi va to‘rtinchi misralariga alohida-alohida e‘tiborimizni qaratsak. Uchinchi misrada “Bilimli va bilimsiz qachon teng bo‘lgandi?”, deya adib Qur‘oni karimning Zumar surasi 9-oyatiga ishora qilmoqda:

“**Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!**”(Ya‘ni olimlar bilan johil(ilmsiz)lar ma‘rifatda... teng bo‘lmaydilar. Ya‘ni jazo va mukofotda farq bo‘ladi.)[4,459], deya Alloh taolo marhamat qilgan.

Navbatdagi misrada esa ojiza va zaifa hisoblangan ayol zoti o‘zida ilm-u irfon hosil qilish orqali jamiyatda er kishilar bilan tenglashishini, agar er kishi ilm o‘rganmas ekan ayollar darajasida bo‘lishini aytib o‘tgan.

Adib quyida suyakka ilik qanchalik kerak bo‘lgani kabi er kishiga ham ilm shunday lozimligini, er kishining ko‘rki aql - ilm bo‘lgani kabi suyakning ko‘rki ilikligini va ilmsiz kishi iliksiz suyak kabi bo‘lib, iliksiz suyakka qo‘l urilmasligini aytib o‘tadi:

- (45). Söñäkkä yilig – teg erängä bilig

Erän körki ‘aql-ol, söñäknüñ – yilig
(46). Biligsiz yiligsiz söñäk-teg xali,
Yiligsiz söñäkkä sunulmas eli[2,77]

(45) So‘ngakka ilik qanchalik kerak bo‘lgani singari, er kishiga ham bilm shunday,

Er kishining ko‘rki aqlidir, so‘ngakning esa – ilik.

(46) Bilimsiz (kishi) iliksiz so‘ngakdek go‘yo,
Iliksiz so‘ngakka qo‘l sunulmaydi[2,10].

Ushbu obrazli fikrdan shunday xulosaga kelishimiz mumkin-ki, jamiyatdagi kishilarga foydasi tegadigan va hammaga kerak bo‘ladigan kishi bu ilmli kishidir. Agar kishining ilmi bo‘lmasa, uning jamiyatga ham foydasi, ham keragi bo‘lmasligi mumkin ekan.

XULOSA

Shunday qilib, adibning bilim to‘g‘risida aytgan fikrlaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkin-ki, ilm kambag‘alga boylik, ko‘rksiz kishiga-ko‘rk, o‘bro‘yi yuqori bo‘lmagan kishi uchun obro‘ ekan. Ammo bilimsiz kishi esa, to‘g‘ri so‘zni yoqtirmaydigan, hamda qabul qilmaydigan bo‘lar va oqibatda johillashib qolar ekan. Jamiyatga ilmsiz kishidan ko‘ra ilmli kishining manafaati ko‘proq tegadi. Shunday ekan, aziz o‘qiguvchi biz ham ilm-u irfonni mukammal o‘rganib, vatanimiz taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘shaylik va ilm o‘rganib nafaqat o‘zimizni balki mamlakatimizni ham yuqori cho‘qqilarga olib chiqaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006
2. Qosimjon Sodiqov. Hibbat-ul-haqoqiyiq[Matn]: asar\ Adib Ahmad Yugnakiy. T.: Akadernashr, 2019
3. Abu Homid al-G‘azzoliy. Iyhou ulumid-din(Din ilmlarini jonlantirish) – Ilm kitobi. T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2007
4. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: “Munir” nashriyoti, 2021